# SAHIH MUSLIM ASARI VA UNING NOMI BORASIDAGI QARASHLAR

**ROBIYA MANNOBJONOVA**
Xadichai kubro ayol qizlar o‘rta maxsus
islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
e-mail:robiyamannobjonova@gmail.com

**Annotatsiya**

Mazkur tezisda Imom Muslim ibn Hajjojning hadis ilmidagi muhim asari “Sahih Muslim”ning yaratilish tarixi, muallif tomonidan asarga qo‘yilgan nom masalasi hamda keyingi davr ulamolarining ushbu nom borasidagi qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarning yozilish muddati haqidagi turli rivoyatlar, uning “Jomiy”, “Sahih”, “Musnadus sahih” kabi nomlar bilan atalish sabablari o‘rganiladi. Shuningdek, Imom Muslimning asar muqaddimasida hadis ilmi, roviylar martabasi va rivoyat qoidalariga oid qarashlari hamda keyingi muhaddislarning “Muqaddima”ga bergan ilmiy bahosi yoritiladi. Manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida asarning eng keng tarqalgan nomi “Sahihi Muslim” bo‘lsa-da, muallifning o‘z iborasida “Musnadus sahih” nomi qo‘llangani haqidagi qarashning ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Imom Muslim, Sahih Muslim, Musnadus sahih, hadis, muhaddis, isnod, roviy, Muqaddima, sahih hadis, Naysabur.

**Kirish**

Hadis ilmining shakllanishi va rivojlanishida Imom Muslim ibn Hajjojning ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. U hijriy 204-yilda tavallud topgan bo‘lib, to‘liq ismi Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj ibn Varad ibn Karshon al-Qushayriy an-Naysaburiydir. Imom Zahabiy uni “imom, huffoz, hujjatul islom” kabi yuksak ilmiy martabalar bilan tavsiflagan (1.269).

Imom Muslimning ko‘plab ilmiy asarlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, uning ilmiy merosidagi eng mashhur asar “Sahih Muslim” hisoblanadi. Mazkur asar Payg‘ambar Muhammad ﷺ hadislarini jamlagan eng muhim hadis manbalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Asarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri uning muqaddimasidir. Imom Muslim muqaddimada asarni yozishga undagan sabablar, hadislarni tanlashda amal qilgan mezonlari, roviylarning martabalari va rivoyat qilish qoidalariga oid muhim ma’lumotlarni bayon qilgan.

“Sahih Muslim”ning muqaddimasi qadimdan olimlarning e’tiborini tortib kelgan. Undagi ayrim jumlalarning qisqaligi, takrorlar, gaplar tartibidagi o‘ziga xosliklar va murakkab bayon uslubi sababli keyingi ulamolar tomonidan unga alohida sharhlar yozilgan. Jumladan, Muhammad ibn Ahmad Tujibiy, Ahmad ibn Muhammad Qastaloniy, Muhammad ibn Yahyo ibn Abu Bakr ibn Halaf va Abdulloh G‘oziyfuriy kabi olimlar Imom Muslim muqaddimasini sharhlaganlar.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi “Sahih Muslim” asarining yozilish jarayoni va ayniqsa, uning nomi masalasida ulamolar tomonidan ilgari surilgan qarashlarni tizimlashtirish va tahlil qilishdan iborat.

**Asosiy qism**

Imom Muslimning “Sahih” asarini yaratish jarayoni uzoq yillar davom etgan. Manbalarda uning yozilish muddati borasida turli ma’lumotlar keltiriladi. Imom Muslimning shogirdi Ahmad ibn Salma: “Muslim bilan uning ‘Sahih’ini o‘n besh yil davomida yozganman”, deb ma’lumot bergan (2.103).

Hoji Xalifa “Kashfuz-zunun” asarida Imom Muslim o‘z kitobini hijriy 250-yilda yozib tugatganini qayd etadi. Biroq Imom Muslimning shogirdi va “Sahih” roviylaridan biri Ibrohim ibn Muhammad ibn Sufyon an-Naysaburiy asarning hijriy 257-yilda o‘qib tugatilganini bildiradi. Ayrim manbalarda esa



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Imom Muslim asarni hijriy 235-yilda, ya’ni taxminan 30 yoshida yozishga kirishgani haqida ma’lumot beriladi.

Mazkur ma’lumotlar bir-biridan farq qilsa-da, Imom Muslim “Sahih” asari ustida uzoq vaqt davomida ishlaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim ulamolar Hokim Naysaburiy, Abu Bakr Bayhaqiy va Ibn Asokir Imom Muslim mazkur asarni uch qismdan iborat qilishni rejalashtirgani, biroq birinchi qismini tugatganidan so‘ng vafot etgani haqidagi fikrni ham bildirganlar. Demak, asarning yaratilish jarayoni bir necha yil davom etgan bo‘lib, uning shakllanishi muallifning uzoq muddatli ilmiy izlanishlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Imom Muslim asarining muqaddimasi ham hadis ilmi tarixida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unda muallif “Sahih”ni tuzishda amal qilgan shartlarini tushuntirish bilan birga, roviylarning martabalari, rivoyatga oid qoidalar va hadis ilmining boshqa masalalariga to‘xtaladi. Shu sababli keyingi davr ulamolari “Muqaddima”ni mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganganlar.

Imom Muslim muqaddimasiga yozilgan sharhlarning mavjudligi uning ilmiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Xususan, Muhammad ibn Ahmad Tujibiyning “Iyjaz val-bayon li sharhi xutbati Muslim”, Ahmad ibn Muhammad Qastaloniyning “Sharhu xutbati Muslim”, Muhammad ibn Yahyo ibn Abu Bakr ibn Halafning “Sharhu muqaddimati Sahihi Muslim” hamda Abdulloh G‘oziyfuriyning “Bahrul Mavvaj” asarlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot mavzusining asosiy masalalaridan biri Imom Muslim asarining nomi bilan bog‘liq qarashlardir. Bunga sabab muallif kitobning o‘zida unga aniq nom bermaganidir. Shu bois keyingi manbalarda asar turli nomlar bilan zikr qilingan.

Ushbu nomlarning birinchisi **“Jomiy”**. Ibn Hajar Asqaloniy “Tahzib”, Hoji Xalifa “Kashfuz-zunun”, Xatib Bag‘dodiy “Hadiyatul orifin”, Muhammad ibn Ja’far Kattaniy “Risalatul mustatrafah” va Shabbir Ahmad Usmoniy “Fathul mulhim” asarlarida Imom Muslimning kitobi “Jomiy” nomi bilan qayd etilgan.

Ikkinchi nom **“Sahih”**. Ibn Asir “Lubob”, Imom Navaviy “Tahzibul asmo val-lug‘ot” va “Sharhu Sahihi Muslim”, Ibn Xallikon “Vafayotul a’yon”, Imom Zahabiy “Siyar a’lom an-nubalo”, Ibn Kasir “Al-bidoya van-nihoya” hamda Ibn Imod “Shazarotuz-zahab” asarlarida mazkur nomdan foydalanganlar. Keyingi asrlarda ham “Sahih” nomi keng qo‘llanib, oxir-oqibat “Sahihi Muslim” shakli eng mashhur nomga aylangan.

Uchinchi nom **“Musnadus sahih”**. Ayrim manbalarda, jumladan, “Tabaqotul hanabila”, “Sabatul Balaviy”, “Fihris Ibn Atiyya”, “Al-Muntazam”, “Muxtasar min axboril bashar”, “Manhajul Ahmad”, “Tazkiratul huffoz” hamda Imom Hokimning “Mustadrak” asarida Imom Muslimning kitobi shu nom bilan keltirilgan.

“Musnadus sahih” nomining ahamiyatini Imom Muslimga nisbat berilgan ayrim so‘zlar yanada kuchaytiradi. Xatib Bag‘dodiy, Ibn Xallikon, Tujibiy va Ibn Imod kabi olimlar Imom Muslimning: “Men ushbu ‘Musnadus sahih’ni o‘zim eshitgan uch yuz ming hadisdan olib yozdim”, degan so‘zlarini naql qilganlar.

Boshqa rivoyatlarda esa Imom Muslimning “Men bu ‘Musnad’ga birorta hujjatsiz narsa qo‘ymadim”, “Ushbu ‘Musnad’ kitobimni Abu Zur’adan o‘tkazib olganman” mazmunidagi so‘zlari keltiriladi. Mazkur ma’lumotlar asarning “Musnad” deb atalganini ko‘rsatuvchi dalillar sifatida keltiriladi.

Biroq ayrim manbalarda “Musnadus sahih” nomi turli qo‘shimchalar bilan ham uchraydi. Qozi Iyoz “G‘unya”da va Ibn Xayr “Fihrist”da “Musnadus sahihil muxtasar minas-sunan”, ya’ni “Sunnat borasida muxtasar sahih musnad” shaklini keltirgan. Tujibiy esa “Barnomij”da nomni yanada kengroq shaklda “Musnadus sahihil muxtasar minas-sunan bi-naqlil adli anil-adli ila Rasulillah ﷺ” tarzida zikr qilgan.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mazkur uzun nomdagi “bi-naqlil adli anil-adli ila Rasulillah ﷺ” iborasi “adolatli kishining adolatli kishidan Rasulullohﷺgacha bo‘lgan naqli” ma’nosini anglatadi. Ushbu qo‘shimcha aslida “musnad” atamasining mazmunini izohlovchi ibora sifatida qaralishi mumkin. Chunki “musnad” hadisning sanad orqali Rasulullohﷺga yetib borishini anglatadi.

Shu jihatdan asarning nomi borasidagi qarashlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: “Jomiy”, “Sahih” va “Musnadus sahih”. Ularning har biri muayyan manbalarda uchrasa-da, qo‘llanish chastotasi va ilmiy an’anadagi mavqei jihatidan ular bir xil darajada emas.

Ayniqsa, “Sahih Muslim” nomi keyingi davr ilmiy adabiyotlarida eng keng tarqalgan nom hisoblanadi. Zamonaviy nashrlarda ham asar asosan shu nom bilan chop etiladi. “Oltin Silsila” nashrida ham asar “Sahihi Muslim” nomi bilan berilgan (3.42).

Asarning “Sahih Muslim” nomi bilan mashhur bo‘lishida unga yozilgan sharhlarning ham muhim o‘rni bor. Jumladan, Imom Navaviyning “Sharhi Sahih Muslim”, Shabbir Ahmad va Muhammad Taqiyuddin Usmoniyning “Fathul Mulhim”, Muhammad Amin Hiraviyning “Kavkabul vahhoj sharhi Sahih Muslim”, Moziriyning “Al-Muallim bi-favoid Muslim”, Imom Suyutiyning “Sharhi Muslim” va Abu Abdulloh Muhammad ibn Xalifaning “Ikmolul muallim” asarlari “Sahih Muslim” nomining ilmiy an’anada mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, “Sahih Muslim” va uning “Muqaddima”si o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish ham nom masalasini tushunishda muhimdir. Ibn Hajar Asqaloniy “Taqrib” asarida “Sahih Muslim”dagi hadis roviylarini “mim” harfi bilan, “Muqaddima”dagi roviylarni esa “mim-kof” harfi bilan belgilagan. Imom Hokim ham “Mustadrak”ida Imom Muslimning asaridan rivoyat qilingan hadislarni “Sahih” va “Muqaddima”ga tegishli ekanini alohida ko‘rsatgan.

Bu holat “Muqaddima”ning asarning asosiy hadis qismidan alohida ilmiy maqomda ko‘rilganini anglatadi. Shuningdek, Imom Muslimning asariga sharh yozgan olimlarning “Muqaddima”ga alohida e’tibor qaratgani ham uning hadis metodologiyasini tushunishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

“Sahih Muslim” nomi masalasida yana bir muhim jihat muallifning o‘z asariga nisbatan ishlatgan iborasidir. Yuqorida keltirilgan rivoyatlarda Imom Muslim o‘z kitobini “Musnadus sahih” deb atagani naql qilinadi. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar va ulamolar mazkur nomni asarning asl nomi sifatida ko‘rsatadilar.

Biroq asarning keyingi davrlarda “Sahih”, “Sahihi Muslim” nomlari bilan mashhur bo‘lib ketgani ham tarixiy-ilmiy an’anada mustahkam o‘rin egallagan. Shuning uchun “Musnadus sahih”ni muallifga nisbat berilgan nom, “Sahihi Muslim”ni esa asarning eng mashhur va keng tarqalgan nomi sifatida ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, nomlar o‘rtasidagi farq asarning mazmuni yoki ilmiy maqomini o‘zgartirmaydi. “Musnadus sahih” atamasi asarning sanadga asoslangan sahih hadislar to‘plami ekanini ifodalasa, “Sahih Muslim” nomi uni boshqa “Sahih” asarlardan ajratib turuvchi mashhur ilmiy nom vazifasini bajargan.

**Xulosa**

Tadqiqot natijasida Imom Muslim ibn Hajjojning “Sahih” asari hadis ilmining shakllanishi va rivojida muhim o‘rin tutgan ilmiy manba ekani aniqlandi. Asar uzoq yillar davomida shakllangan bo‘lib, uning yozilish muddati haqida manbalarda turli ma’lumotlar mavjud. Ayrim rivoyatlarda asar o‘n besh yil davomida yozilgani qayd etilgan.

Imom Muslimning asar muqaddimasi esa hadis ilmi metodologiyasini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Unda muallif hadislarni tanlash mezonlari, roviylarning martabalari va rivoyat qoidalariga oid qarashlarini bayon qilgan. Shu sababli keyingi ulamolar tomonidan “Muqaddima”ga ko‘plab sharhlar yozilgan.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Asarning nomi borasida esa manbalarda uch asosiy shakl “Jomiy”, “Sahih” va “Musnadus sahih” nomlari uchrashi aniqlandi. “Jomiy” nomi ayrim bibliografik va hadisga oid asarlarda qo‘llangan bo‘lsa, “Sahih” nomi juda keng tarqalgan. “Musnadus sahih” nomi esa Imom Muslimning o‘z so‘zlari sifatida ayrim manbalarda keltirilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Shu asosda “Musnadus sahih” nomi muallifning o‘z asariga nisbatan qo‘llagan nomi sifatida ilmiy jihatdan muhim dalilga ega bo‘lsa, “Sahihi Muslim” nomi asarning keyingi davrlarda eng mashhur va keng qo‘llanilgan nomi sifatida qaraladi. Demak, mazkur ikki nom bir-birini inkor etmaydi: birinchisi asarning sanad va sahihlik xususiyatini ifodalasa, ikkinchisi ilmiy an’anada mustahkamlangan mashhur nomni bildiradi.

**Adabiyotlar**

1. Shabbir Ahmad va Muhammad Taqiyuddin Usmoniy. Fathul Mulhim. J. 1. – Bayrut: Darul Ihyo, 2006.
2. Muhammad Amin Hiraviy. Kavkabul vahhoj sharhi Sahih Muslim. – Makka: Dorul Minhaj, 2009.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Usmonxon Alimov, Bahrom Abduhalimov, Ismoil Muhammad Sodiq. Oltin Silsila. Sahihi Muslim. J. 1. – Toshkent: Hilol nashr, 2019.
4. Shayx Sofiyyur Rohman ibn Abdulloh Muborakfuriy. Minnatul mun’im sharhi Sahih Muslim. J. 1. – Riyoz: Dorussalom, 1999.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.